

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.I.30.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**ABDULLAYEV ERKINJON A'ZAMOVICH**

**O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORINI DAVLAT TOMONIDAN  
TARTIBGA SOLISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri– 2026-yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract for Doctor of Philosophy (PhD)  
in economics**

**Abdullayev Erkinjon A‘zamovich**

O‘zbekistonda sug‘urta bozorini davlat tomonidan tartibga solishning moliyaviy mexanizmini takomillashtirish.....3

**Абдуллаев Эркинжон Аъзамович**

Совершенствование финансового механизма государственного регулирования страхового рынка в Узбекистане.....27

**Abdullaev Erkinjon Azamovich**

Improvement of the financial mechanism of state regulation of the insurance market in Uzbekistan.....55

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....60

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.I.30.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**ABDULLAYEV ERKINJON A'ZAMOVICH**

**O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORINI DAVLAT TOMONIDAN  
TARTIBGA SOLISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri– 2026-yil**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2022.4.PhD/Iqt2554 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tiu.uz) va «Ziyonet» ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Raxmonov Dilshodjon Alidjonovich**  
iqtisodiyot fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Tursunov Jahongir Pulatovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharobiddinov Akramjon Goyibbayevich**  
iqtisodiyot fanlari nomzodi

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent kimyo-texnologiya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Tashkent International University huzuridagi DSc.03/2025.27.12.I.30.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "12" 09 kuni soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7-uy. Tel.: (99895) 131-55-55; faks: (99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz

Dissertatsiya bilan Tashkent International Universityning Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (59 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7. Tel.: (99895) 131-55-55; faks: (99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «14» 08 kuni tarqatildi.

(2026 yil «24» 07 dagi 45 raqamli reestr bayonnomasi).



**N.X. Jumayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash raisi, iqtisodiyot fanlari  
doktori, professor

**I.X. Abduraxmonov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari  
doktori, dotsent

**A.R. Norov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi  
o'rinbosari, iqtisodiyot fanlari doktori,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda iqtisodiy, geosiyosiy va texnologik jarayonlarning faollashuvi bilan bir qatorda sug'urta xizmatlarida raqamli va moliyaviy texnologiyalarning ommalashishi sug'urta bozori professional ishtirokchilarini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishni talab etmoqda. Sug'urta bozorini tartibga solishda riskka asoslangan nazorat mexanizm talablarining kuchaytirilishi, sug'urta tashkilotlarining investitsiya qo'yilmalariga likvidlilik, rentabellik, prudensial me'yorlarning qat'iylashuvi o'sish darajasini sekinlashuviga olib kelmoqda. Global nuqtai nazardan geosiyosiy ziddiyatlar, kiberxavflar, iqtisodiy beqarorlik, tabiiy ofatlar hamda ta'minot zanjirlaridagi uzilishlar sug'urta bozorini transchegaraviy kengayishiga to'siq bo'lmoqda, sug'urta hodisalari chastotasi va zararlar miqdorining ortishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Swiss Re Institute ma'lumotlariga ko'ra<sup>1</sup>, 2026-yilda global sug'urta mukofotlarining real o'sishi 2025-yildagi 3,9 foiz o'sishdan 1,3 foizgacha sekinlashishi, hayot sug'urtasi bo'yicha real o'sish 2,3 foizni, umumiy sug'urta bo'yicha 0,6 foizni tashkil etishi prognoz qilingan. Raqamli sug'urta va sun'iy intellektga asoslangan andarrayting texnologiyalari bozori 2025-yildagi 25,7 mlrd.AQSh dollarga yetganligi, 2026-yilda 35,3 mlrd.AQSH dollargacha o'sishi<sup>2</sup> kutilmoqda.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) ma'lumotida<sup>3</sup>, sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi organlar sug'urta barqarorligiga tahdid soluvchi asosiy omillar sifatida makroiqtisodiy beqarorlik bilan birgalikda kiberxavflarni sug'urtalash va ularni tartibga solish mexanizmlarini eng dolzarb muammolar sifatida e'tirof etmoqdalar. Zararlar miqdorini oldindan baholashning murakkabligi, statistik ma'lumotlarning cheklanganligi va risklarning o'zaro bog'liqligi sug'urta tariflari hamda ehtimoliy majburiyatlarni an'anaviy aktuar usullar asosida aniqlash imkoniyatlarini cheklashi sug'urta bozorida riskka asoslangan nazorat, stress-test, kapital yetarliligi, to'lovga layoqatlilik va qayta sug'urtalash, prudensial me'yorlarni moliyaviy mexanizmlar orqali takomillashtirish muhim yo'nalishlardan biri sifatida qayd etilmoqda.

O'zbekistonda sug'urta bozorini tartibga solishda amalga oshirilayotgan islohotlar, sug'urta faoliyatini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organlari bo'yicha institutsional o'zgarishlar, sug'urta xizmatlarini ko'rsatishda qo'shimcha to'lovlarni belgilanishi (choraklik badal, elektron sug'urta polisi), qog'oz shaklidagi sug'urta polislaridan voz kechgan holda to'liq elektron sug'urta polisiga o'tilishi, raqamlashtirish jarayonlari hisobiga sug'urta tashkilotlarini prudensial me'yorlarga rioya etilishi yuzasidan nazorat qilish imkoniyatlarini oshirmoqda. Shu bilan birga prudensial me'yorlarni buzilishiga nisbatan ta'sirchan choralar sifatida moliyaviy sanksiyalarni qo'llashni takomillashtirish va sanatsiya qilish mexanizmlarini joriy etish, sug'urta kompaniyalarining sug'urta faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq

<sup>1</sup> <https://www.swissre.com/institute/research/sigma-research/sigma-2026-02-world-insurance>

<sup>2</sup> <https://www.researchandmarkets.com/reports/6226162/insurtech-insurance-technology-market-report>

<sup>3</sup> [https://www.oecd.org/en/publications/global-insurance-market-trends-2025\\_0d11ecf4-en/full-report/component](https://www.oecd.org/en/publications/global-insurance-market-trends-2025_0d11ecf4-en/full-report/component)

litsenziyalari bekor qilinganda tugatish tartib-taomillarni belgilash bo'yicha tadqiqotlar olib borish dolzarbdir.

Ushbu dissertasiya ishi ma'lum darajada yuqorida ko'rsatilgan muammolarni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlarida belgilangan vazifalarni hal etishga xizmat qiladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-16-son farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-martdagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-108-son, 2025-yil 23-maydagi "Mamlakatimizda qayta sug'urta tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-191-son qarorlari va ushbu faoliyatga tegishli bo'lgan me'yoriy hujjatlarda belgilab o'tilgan vazifalarni amaliyotga tatbiq etib borishga mazkur dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Ushbu dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish» deb nomlangan strategik mavzularining ustuvorligiga muvofiq ravishda bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Sug'urta bozorini tartibga solish va nazorat qilishni iqtisodiy va moliyaviy jihatdan xarakterini o'rgangan holda sug'urta munosabatlari shakllanish tarixi va iqtisodiy mazmuniga oid umumnazariy mulohazalar, amaliy hamda uslubiy jihatlarini rivojlantirishga doir xorijiy olimlar – A. Aryamov, N. Apergis, I. Boaheng, M. Brandtner, W. Bian, C. Gaganis, Z. Jing, S. Liu, E.J. Richardson, G.E. Rejda, X. Wang<sup>4</sup>, rus va MDH davlatlari olimlari – A.V. Emelyanov, D.Kuleshova, A.N.Magomadov, V. Reyxer, I. V. Simonova, V.V. Shaxov, A.A.Tsvyrko, K.E.Turbina, L.K.Ulibina, K. Vobliy, T.A.Fyodorova<sup>5</sup> va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

---

<sup>4</sup> Andrei Aryamov and Vladimir Kulakov, 'Legal Acts of the Galicia-Volhynia Principality of the 12th–13th Centuries as Historical Heritage of Domestic Medieval Law', *ООО "Zhurnal 'Voprosy Istorii'* 2022, no. 3–2 (1 March 2022): 77–83; Apergis, N. & Poufinas, T. (2020). "The role of insurance growth in economic growth: Fresh evidence from a panel of OECD countries." *The North American Journal of Economics and Finance*, 53.; ISAAC BOAHENG, 'Exploring the Relationship between the Mosaic Code and the Hammurabi Code', *All Nations University Journal of Applied Thought*, 30 November 2020, 77–89, <https://doi.org/10.47987/CEFD7600>.; Brandtner, M., & Kürsten, W. Solvency II, regulatory capital, and optimal reinsurance: How good are Conditional Value-at-Risk and spectral risk measures? *Insurance: Mathematics and Economics*. 2014. Vol. 59. pp. 156–167.; Bian, W., Ge, T., Ji, Y., Wang, X. How is Fintech reshaping the traditional financial markets? New evidence from InsurTech and insurance sectors in China. *China Economic Review*. 2023. Vol. 80. pp. 1–20; Gaganis, C., Hasan, I., & Pasiouras, F. Regulations, institutions and income smoothing by managing technical reserves: International evidence from the insurance industry. *Omega*. 2016. Vol. 59(A). pp. 113–129.; Jing, Zhen. *The Regulation of Insurance in China*. London: Routledge (Informa Law), 2014.; M. E. J. Richardson, 'Hammurabi's Laws: Text, Translation and Glossary', *Journal of the American Oriental Society* 122, no. 1 (January 2002): 178, <https://doi.org/10.2307/3087720>; Rejda G.E. *Principles of Risk Management and Insurance*. – 10-ed. – Boston: Pearson Education, 2008.; Wang, X., Wu, H., Meng, S., Liu, K., & Chen, H. Deregulation, claims ratio, and consumer surplus: Evidence from China's auto insurance reform. *Pacific-Basin Finance Journal*. 2025. Vol. 94. pp. 1–20.

<sup>5</sup> Емельянов А. В. Эффективность функционирования российского страхового рынка и механизмы её повышения: автореф. дисс. на соискание учёной степени к.э.н. – Краснодар, 2006. – 28 с.; Кулешова Д.И. Государственное регулирование на страховом рынке: инструменты, формы, методы // Форум молодых ученых. 2025. №5 (105). С. 79–83.; Магомадов А.Н. Государственное финансовое регулирование страхового

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar S.T. Abdimo'minova, I.X. Abduraxmonov, D.F. Abduturapova, R.S. Azimov, N.M. Babayeva, M.Sh. Ergasheva, F.Sh. Hamrayeva, S.R. Matiyazova, N.A. Mavkulova, M.A. Mirsadikov, G.A. Nosirova, X.M. Shennayev, Sh.Q. To'xtamishov, M.Y. Tuxtarova, S.A. Umarov, G.T. Xalikulova, A.Y. Xolbayev, S.M. Xoshimov<sup>6</sup> asarlarida sug'urta faoliyati, sug'urta faoliyati menejmenti, prudensial me'yorlar va sug'urta bozorini tartibga solish, nazorat qilish va rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borganlar.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya TDIUning ilmiy-tadqiqot ishlar rejasiga muvofiq "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish sharoitida bank-moliya, soliq va investitsiya faoliyatini modernizatsiya qilish muammolarini ilmiy asoslash" mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** O'zbekiston sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solishning moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan tizimli tahlil asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

#### **Tadqiqot vazifalari:**

O'zbekistonda sug'urta bozorini tartibga solishning amaldagi moliyaviy mexanizmlarini, uslubiy va nazariy muammolarini ochib berish;

---

рынка: современное состояние и приоритеты развития // Финансы и кредит. С. 121–125.; Райхер В. К. Общественно-исторические типы страхования, АН СССР, 1947, стр 55; Симонова И. В. Институциональное регулирование страхового рынка как экономической системы в условиях вступления России в ВТО : автореф. дисс. на соискание ученой степени к.э.н.: – Саратов, 2013. – 22 с.; Шахов В. В. Страхование : учебник для вузов. – Москва : ЮНИТИ-ДАНА, 2010. – 311 с.; Цвырко А.А., Сухорукова Н.В., Иващенко Т.Н., Полякова А.А. Страховой рынок России: современное состояние и тенденции развития // Вестник Академии знаний. 2024. №5 (64). С. 481–486; К.Е. Турбина. Теория и практика страхования. Учебное пособие – М.:Анкил, 2003 – с 7.; Улыбина Л. К. Институты и инструменты страхового рынка в воспроизводственном процессе : автореф. дисс. на соискание ученой степени д.э.н. :. – Краснодар, 2014. – 48 с.; К.Воблый, Основы экономики страхования, М, АНКИЛ, /995, стр 11; Федорова Т.А. Страхование. учебник 3-е издание переработанное и дополненное. – Москва : Магистр, 2009. – 1006 с.

<sup>6</sup> Abdimo'minova S.T. O'zbekistonning shaxsiy sug'urta sohasida menejment samaradorligini oshirish. i.f.f.d. (PhD) diss. – T., 2023. 148 b.; Abduraxmonov I.X. O'zbekiston Respublikasida sug'urta tarmoqlarini rivojlantirishning konseptual asoslari. i.f.d. (DSc) diss. avtoref. – T., 2023. 78 b.; Abduturapova D.F. Iqtisodiyotni istiqbolli rivojlantirishda sug'urta munosabatlarini takomillashtirish. i.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – T., 2024. 60 b.; Azimov R.S. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida risklarni sug'urtalash metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. (DSc) diss. – T., 2022. 278 b.; Babayeva N.M. Sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyati samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. (DSc) diss. avtoref. – T., 2023. 77 b.; Ergasheva M.Sh. Sug'urta tashkilotlarida moliyaviy natijalar hisobini takomillashtirish. i.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – T., 2024. 62 b.; Hamrayeva F.Sh. O'zbekistonda majburiy sug'urta turlarini takomillashtirish. i.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – T., 2023. 58 b.; Matiyazova S.R. O'zbekistonda sug'urta vositachiligini takomillashtirish. i.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – T., 2023. 60 b.; Mavkulova N.A. Umumiy sug'urta sohasini rivojlantirish yo'nalishlari. i.f.d. (DSc) diss. avtoref. – T., 2023. 89 b.; Mirsadikov M.A. O'zbekistonda inklyuziv sug'urtani rivojlantirish yo'nalishlari. i.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – T., 2025. 103 b.; Nosirova G.A. O'zbekiston Respublikasi sug'urta kompaniyalari investitsiya faoliyatining moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish. i.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – T., 2023. 50 b.; Shennayev X.M. O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari. i.f.d. (DSc) diss. – T., 2021. 328 b.; To'xtamishov Sh.Q. O'zbekistonda mikrosug'urtani rivojlantirish. i.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – T., 2024. 69 b.; Tuxtarova M.Y. O'zbekistonni innovatsion rivojlantirish sharoitida mulkiy sug'urtalash amaliyotini takomillashtirish. i.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – T., 2023. 58 b.; Umarov S.A. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida O'zbekistonda sug'urta faoliyati rivojlantirishni boshqarish. i.f.d. diss. – T., 2012. 384 b.; Xalikulova G.T. Sug'urta tashkilotlarining innovatsion faoliyati samaradorligini oshirish yo'nalishlari. i.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – T., 2024. 60 b.; Xolbayev A.Y. O'zbekistonda informatsion risklarni sug'urtalash amaliyotini takomillashtirish istiqbollari. i.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – T., 2025. 59 b.; Xoshimov S.M. O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni sug'urtalashni takomillashtirish. i.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – T., 2022. 62 b.

sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish hamda riskga asoslangan prudensial me'yorlarni ishlab chiqishning ilmiy-uslubiy yondashuvlarini tadqiq etish;

sug'urta bozorini tartibga solishda davlat nazorati va o'zini o'zi tartibga solish institutlari o'rtasidagi optimal o'zaro nisbatni ilmiy asoslash;

sug'urta tashkilotlari moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi mexanizmlar, jumladan kapital yetarliligi, texnik zaxiralarni shakllantirish, investitsiya siyosati, shuningdek to'lovga qobiliyatsizlik holatida sug'urta tashkilotlarini sanatsiya qilish va tugatish tartib-taomillarini takomillashtirishning ilmiy-uslubiy jihatlarini tadqiq etish;

sug'urta bozorini tartibga solishda raqamli texnologiyalardan InsurTech, RegTech, SupTech, telematika texnologiyalarining moliyaviy mexanizmlari qiyosiy tahlilini o'tkazish;

O'zbekistonning xalqaro moliyaviy sug'urta bozorlariga integratsiyasi sharoitida sug'urta bozorini tartibga solishning moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida O'zbekistondagi sug'urta tashkilotlari, jumladan "Farovon sug'urta" AJ hamda "Alskom sug'urta kompaniyasi" AJ ning faoliyatlarini tartibga solish bilan bog'liq moliyaviy mexanizmlar olingan.

**Tadqiqotning predmeti** O'zbekistonda sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning moliyaviy mexanizmlari bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda empirik tahlillar, aktuar hisoblash, guruhlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, chiziqli regressiya, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-matematik modellashtirish singari usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Mustaqil aktuariy ishtirokidagi majburiy aktuar tekshiruv orqali sug'urta tashkilotlari sof foydasini taqsimlash va sug'urta bozori kapitallashuvini oshirish asoslangan;

Sug'urta tashkilotlarining depozit investitsiyalarini banklarning NPL darajasi asosida baholash hamda yuqori NPLga ega banklardagi depozitlarni nolikvid aktiv sifatida e'tirof etish orqali investitsiya portfeli likvidligini oshirish mexanizmi taklif etilgan;

Sug'urta tashkilotlari to'lovga qobiliyatsizligida sug'urta qildiruvchilar manfaatlarini himoya qilish hamda sug'urta bozori barqarorligini ta'minlashga qaratilgan sanatsiya, tugatish va sug'urta portfelini o'tkazishning kompleks mexanizmi ishlab chiqilgan;

Telematika texnologiyalari asosida haydovchining individual riskini baholash va sug'urta tariflarini aktuar hisoblash mexanizmi taklif etilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Sug'urta risklari, bozor risklari va operatsion risklarni hisobga olgan holda kapital talablarini aniqlash hamda amaliyotda moliyaviy barqarorlikni oshirish vositasi sifatida qo'llanilishi asoslab berildi;

prudensial ko'rsatkichlar tizimi asosida sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini kompleks baholash imkonini beruvchi monitoring mexanizmi orqali

amaliyotda vakolatli davlat organi tomonidan sug'urta kompaniyalarini reyting ko'rsatkichlari asosida baholash, risklarni aniqlash imkoni yaratildi;

sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida sug'urta zaxiralarini shakllantirish va joylashtirishning aktuar hisoblari taklif etildi. Shu bilan birga, aktivlarni diversifikatsiya qilish, likvidlikni boshqarish va investitsiya portfelini optimallashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi;

tadqiqot doirasida sug'urta bozorini raqamli tartibga solish uchun SupTech va RegTech texnologiyalariga asoslangan telematika texnologiyalarini joriy etish orqali sug'urta tariflarini aktuar jihatdan asoslangan mexanizmi yaratildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsion tadqiqot olib borish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat statistika agentligi va "Alskom sug'urta kompaniyasi" AJ hamda "Farovon sug'urta" AJlarning rasmiy ma'lumotlari shuningdek Xalqaro moliya institutlarining sug'urta bozorlariga doir bo'lgan rasmiy statistik ma'lumotlaridan foydalanilganligi, me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mavzuga tegishli qismlari atroflicha ko'rib chiqilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sug'urta bozorida riskga asoslangan nazorat modelining nazariy-uslubiy asoslari ishlab chiqildi hamda kapital yetarliligi, risklarni baholash va monitoring qilish mexanizmlari yagona tizimga keltirgan holda sug'urta tashkilotlari faoliyatini kompleks baholash uchun integrallashgan prudensial ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv sug'urta bozorining barqarorligini baholash metodologiyasini kengaytiradi va uni tizimli tahlil asosida takomillashtiradi. Sug'urta bozorida davlat tartibga solishi va o'zini o'zi tartibga solish institutlari o'rtasidagi optimal nisbatni belgilovchi gibril model konsepsiyasi ishlab chiqildi. Bu yondashuv institutsional iqtisodiyot va moliyaviy regulatsiya nazariyasini boyitadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan integrallashgan prudensial ko'rsatkichlar tizimi sug'urta tashkilotlari faoliyatini kompleks baholash, moliyaviy barqarorlik darajasini aniqlash va erta ogohlantirish mexanizmlarini joriy etishda vakolatli davlat organlari uchun amaliy vosita bo'lib xizmat qiladi. Taklif etilgan riskga asoslangan kapital modeli sug'urta kompaniyalarida kapital yetarliligini aniqlash, risklarni to'g'ri baholash va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda amaliy metodik asos sifatida qo'llanilishi mumkin. Gibril tartibga solish modeli davlat va o'zini o'zi tartibga solish institutlari o'rtasidagi samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, ortiqcha ma'muriy yuklamalarni kamaytirish va bozor intizomini oshirishda amaliy ahamiyat kasb etib.

#### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

O'zbekiston sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solishning moliyaviy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

mustaqil aktuariy ishtirokidagi majburiy aktuar tekshiruv orqali sug'urta tashkilotlari sof foydasini taqsimlash va sug'urta bozori kapitallashuvini oshirish taklifi "Alskom sug'urta kompaniyasi" AJ faoliyatiga joriy etilgan ("Alskom sug'urta kompaniyasi" AJning 2025-yil 29-dekabrda 02-8149-sonli

ma'lumotnomasi). Natijada, "Alskom sug'urta kompaniyasi" AJ ning ustav kapitali 2025-yil 30-sentyabrda 40 181 954 040 so'mdan 60 272 931 060 so'mga oshirildi, alohida tavakkalchiliklar bo'yicha majburiyatlarining eng ko'p miqdori 51 162 582 000 so'mga oshib, 20,6 foizga erishildi, Kompaniya uchun qo'shimcha mijozlarni jalb qilishga imkon yaratgan;

sug'urta tashkilotlarining depozit investisiyalarini banklarning NPL darajasi asosida baholash hamda yuqori NPLga ega banklardagi depozitlarni nolikvid aktiv sifatida e'tirof etish orqali investisiya portfelini likvidligini oshirish mexanizmi taklifi "Alskom sug'urta kompaniyasi" AJ va "Farovon sug'urta" AJ faoliyatlariga joriy etilgan ("Alskom sug'urta kompaniyasi" AJning 2025-yil 29-dekabrda 02-8149-sonli ma'lumotnomasi, "Farovon sug'urta" AJning 2025-yil 30-dekabrda 28-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, "Alskom sug'urta kompaniyasi" AJ ning sho'ba kompaniyasi bo'lgan "Farovon sug'urta" AJning 2021-2026 yillarda 5,9 mlrd.so'm kabi investisiya qo'yilmalarini muammoli debitor qarzdorlik sifatida shakllanib qolishini oldini olishga imkon yaratgan;

sug'urta tashkilotlari to'lovga qobiliyasizligida sug'urta qildiruvchilar manfaatlarini himoya qilish hamda sug'urta bozori barqarorligini ta'minlashga qaratilgan sanatsiya, tugatish va sug'urta portfelini o'tkazishning kompleks mexanizmini joriy etish taklifi "Alskom sug'urta kompaniyasi" AJ faoliyatiga joriy etilgan ("Alskom sug'urta kompaniyasi" AJning 2025-yil 29-dekabrda 02-8149-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, sug'urta kompaniyalarining 2023-2025 yillarda to'lovga layoqatliligi o'rta hisobda 5,6 foizga ortgan, 2030-yilga qadar 8-10 foizga oshish imkonini bergan.

telematika texnologiyalari asosida haydovchining individual riskini baholash va sug'urta tariflarini aktuar hisoblash mexanizmiga doir taklifi "Farovon sug'urta" AJ faoliyatiga joriy etilgan ("Farovon sug'urta" AJning 2025-yil 30-dekabrda 28-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, transport vositalarini sug'urtalashda telematika vositalarini qo'llash hisobiga sug'urta xizmatlari bozoriga qo'shimcha 45,3 mlrd.so'm sug'urta mukofotlarini jalb qilishga, sug'urta qamrovini ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha 30 foizgacha yetkazish imkonini yaratadi.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta, jumladan, 1 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish e'lon qilingan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda, ilmiy-amaliy konferensiyalarda 9 ta ma'ruza tezislari nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiya hajmi 132 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda ob'ekt va predmeti, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va joriy etilishi, dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solishning nazariy qarashlari va ilmiy asoslari" deb nomlangan birinchi bobida sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solishning shakllanish bosqichlari hamda uning ilmiy-nazariy asoslari tizimli ravishda tadqiq etilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sug'urta munosabatlari tarixan risklarni kollektiv taqsimlash zarurati asosida shakllangan bo'lib, dastlabki ko'rinishlari qadimgi sivilizatsiyalardagi kompensatsiya va javobgarlik tamoyillariga borib taqaladi.

| Rivojlanish bosqichlari | Bosqichning asosiy xususiyatlari                                                                    | Asosiy tartibga soluvchi organlar          | Asosiy natijalar                                                                                         |
|-------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. 1991-2000            | Huquqiy baza shakllanishi bozorni demonopolizatsiya qilish, xususiy kompaniyalarning paydo bo'lishi | Moliya vazirligi                           | "Sug'urta to'g'risida" Qonun (1993), birinchi xususiy sug'urtalovchilarni ro'yxatga olish                |
| 2. 2001-2010            | Sug'urta bozorining qonunchilik va institutsional tuzilmasini rivojlantirish                        | Moliya vazirligi                           | "Sug'urta faoliyati to'g'risida" Qonun (2002), litsenziyalash tizimini shakllantirish                    |
| 3. 2011-2016            | Nazorat funksiyalarini kuchaytirish va xatarlar asosida yondashuvni joriy etish                     | Moliya vazirligi                           | Zaxiralar va hisobot tizimini takomillashtirish, aktuariy standartlarini joriy etish                     |
| 4. 2017-2019            | Raqamlashtirish va modernizatsiya, Agentlikning tashkil etilishi                                    | Moliya vazirligi                           | Elektron polislar, onlayn savdo, innovatsion sug'urta mahsulotlarini joriy etish                         |
| 5. 2020-2022            | Tartibga solishni markazlashtirish, xatarlarni boshqarish tizimini rivojlantirish                   | Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi | Nazorat jarayonlarini raqamlashtirish, xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish                        |
| 6. 2023y-h.v.q          | Innovatsion tartibga solish modeli, ESG va InsurTech integratsiyasi                                 | Iqtisodiyot va moliya vazirligi, ILMA      | Funksiyalarni ILMaga topshirish, raqamli nazoratni joriy etish va xalqaro standartlar bilan integratsiya |


**1-rasm. O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solish tizimining shakllanish bosqichlari<sup>7</sup>**

<sup>7</sup> Muallif tomonidan ilmiy manbalarni tahlil qilish asosida tuzilgan.

Keyinchalik sugʻurta tizimi institutsional rivojlanib, davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari shakllangan. Shuningdek, Oʻzbekiston sugʻurta bozorining evolyutsiyasi bosqichma-bosqich tahlil qilinib, uning huquqiy, institutsional va moliyaviy asoslari ochib berilgan. Sugʻurta infratuzilmasining tarkibi, uning iqtisodiy funksiyalari hamda tartibga solishdagi roli ilmiy jihatdan asoslangan. Tadqiqot natijasida sugʻurta bozorini davlat tomonidan tartibga solish – bu moliyaviy barqarorlikni taʼminlash, sugʻurtalanuvchilar manfaatlarini himoya qilish va bozor samaradorligini oshirishga qaratilgan kompleks mexanizm ekanligi asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, 1991–2000-yillarda sugʻurta bozorining huquqiy bazasi shakllanib, bozorni demonopolizatsiya qilish hamda xususiy sugʻurta kompaniyalari paydo boʻlishiga asos yaratildi. 2001–2010-yillarda institutsional rivojlanish kuchayib, litsenziyalash tizimi joriy etildi. 2011–2016-yillarda prudensial nazorat va riskga asoslangan yondashuv elementlari rivojlantirildi. 2017–2019-yillarda raqamlashtirish jarayonlari boshlangan boʻlsa, 2020–2022-yillarda tartibga solish tizimi markazlashtirilib, risklarni boshqarish mexanizmlari takomillashtirildi (1-rasm).

2023-yildan boshlab esa innovatsion tartibga solish modeli hamda InsurTech yechimlari, sugʻurta polislarini faqat onlayn shaklda shakllantirish amaliyoti joriy etilganligi tadqiq etilgan. Tadqiqot shuni asoslaydiki, sugʻurta bozorini samarali tartibga solish bosqichma-bosqich evolyutsion rivojlanish orqali amalga oshib, uning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini taʼminlashda muhim ahamiyat kasb etadi.



**2-rasm. 2024-yilda Istiqbolli loyihalar milliy agentligiga kelib tushgan yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlari <sup>8</sup>(dona, foizda)**

2024-yilda Istiqbolli loyihalar milliy agentligiga kelib tushgan yuridik va jismoniy shaxslarning murojatlar tarkibi tarmoqlar kesimida aks ettirilgan. Mazkur

<sup>8</sup> www.napp.uz maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

ko'rsatkichlar iqtisodiyot tarmoqlarida yuzaga kelayotgan muammolar, tartibga solish darajasi va institutsional muhitning holatini baholash imkonini beradi.

Har bir komponent sug'urta bozorining barqarorligi, shaffofligi va samaradorligini ta'minlashda muhim funksional vazifalarni bajaradi. Xususan, sug'urta kompaniyalari moliyaviy resurslarni shakllantirsa, sug'urta vositachilari bozorga mijozlar kirishi va sug'urta qamrovini oshishiga xizmat qiladi, aktuariylar va auditorlar moliyaviy barqarorlikni baholaydi, vakolatli davlat organlari esa nazorat va muvozanatni ta'minlaydi.

## 1-jadval

### Sug'urta infratuzilmasining asosiy komponentlari<sup>9</sup>

| Komponent                                                               | Tavsif                                                                             | Tartibga solishdagi roli                                                            | Innovatsiyalar / texnologiyalar                                                        |
|-------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------|
| Sug'urta kompaniyalari                                                  | Sug'urta zaxiralarini shakllantiruvchi va xizmat ko'rsatuvchi asosiy subyektlar    | Raqobatni ta'minlash, moliyaviy barqarorlik, manfaatlarni himoya qilish             | Avtomatlashtirilgan andarrayting, Big Data, xavflarni baholashda sun'iy intellekt (AI) |
| Sug'urta vositachilari (sug'urta va qayta sug'urta brokerlar, agentlar) | Sug'urta shartnomalarini tuzishda vositachilar                                     | Bozorga kirishni yengillashtirish, rivojlantirish, mijoz manfaatlarni himoya qilish | Onlayn savdo, raqamli platformalar, mobil ilovalar                                     |
| Adjasterlar, avariya komissarlari va syurveyerlar                       | Sug'urta hodisalari, xavflar va zararni baholovchilar                              | Obyektiv baholash, firibgarlikning oldini olish                                     | Fotosurat asosida tasdiqlash, telematika, videokuzatuv, mobil ilovalar                 |
| Aktuariylar va auditorlar                                               | Moliyaviy modellash, rezervlar hisoboti va barqarorlik bahosi                      | Me'yorlarga rioya qilish nazorati, to'lovga qobiliyatni baholash                    | AI asosida aktuariyat, stress-testlarni avtomatlashtirish                              |
| Vakolatli davlat organlari                                              | Davlat nazorati (masalan, O'zbekistonda ILMA)                                      | Litsenziyalash, nazorat, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish                   | RegTech, raqamli hisobot, markazlashtirilgan ma'lumot bazalari                         |
| Assotsiatsiyalar va ittifoqlar                                          | Sug'urtalovchilar va soha mutaxassislarning uyushmalari                            | O'zini-o'zi tartibga solish, standartlashtirish, malaka oshirish                    | Onlayn ta'lim, sertifikatlash, elektron hamkorlik platformalari                        |
| Axborot texnologiyalari tizimlari                                       | Shartnomalar, hisob-kitob va hisobotlar uchun raqamli infratuzilma                 | Shaffoflikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish, jarayonlarni tezlashtirish         | InsurTech, elektron hujjatlar aylanishi, API integratsiya, bulutli yechimlar           |
| Qayta sug'urtalash                                                      | Sug'urtalovchilar o'rtasida risklarni taqsimlash, halokatli zararlarni kamaytirish | Sug'urta sektorining barqarorligini oshirish, tizimli risklarni kamaytirish         | Elektron platformalar, blokcheyn reyestrlari, avtomatlashtirilgan risk baholash        |
| Assistance (yordam) xizmatlari                                          | Sug'urtalanganlarga tez yordam (evakuatsiya, tibbiy yordam, ta'mir, maslahat)      | Xizmat ko'rsatishning uzluksizligini ta'minlash, mijoz ishonchini oshirish          | GPS kuzatuv, telemeditsina, onlayn konsyerj, avtomobil yordam xizmati                  |


<sup>9</sup> Muallif tomonidan ilmiy manbalarni tahlil qilish asosida tuzilgan.

Zamonaviy sharoitda infratuzilmaning rivojlanishi raqamli texnologiyalar – Big Data, sun'iy intellekt, InsurTech yechimlari bilan chambarchas bog'liq. Tadqiqot shuni asoslaydiki, rivojlangan sug'urta infratuzilmasi bozor samaradorligini oshiradi, risklarni boshqarishni takomillashtiradi hamda sug'urta xizmatlarining ommaviyligini ta'minlaydi.

Sug'urta infratuzilmasi beshta asosiy elementlar guruhiga ajratilgan bo'lib, ular: vakolatli davlat organlari, kasbiy uyushmalar, bozor ishtirokchilari, axborot-texnologik tizimlar hamda innovatsion texnologiyalarni o'z ichiga oladi.

Vakolatli davlat organi sifatida Istiqbolli loyihalar milliy agentligi, sug'urta bozori nazorati organlari hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi keltirilgan bo'lib, ular sug'urta bozorini litsenziyalash, nazorat qilish va normativ-huquqiy tartibga solish funksiyalarini amalga oshiradi. Kasbiy uyushmalar, jumladan sug'urtalovchilar va aktuariylar assotsiatsiyalari, sug'urta xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq standartlarni ishlab chiqish, malaka oshirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Bozor ishtirokchilari sifatida sug'urta kompaniyalari ko'rsatilgan bo'lib, ular risklarni taqsimlash, vositachilik faoliyatini amalga oshirish hamda raqobat muhitini shakllantirishda asosiy rolni bajaradi. Avtomatlashtirilgan axborot tizimlar sug'urta shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish va avtomatlashtirish orqali hisob-kitoblarning shaffofligini oshirishga xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalar, xususan telematika, InsurTech yechimlari va raqamli polislar, sug'urta xizmatlarining tezligi va qulayligini oshirib, bozor samaradorligini ta'minlaydi.



**3-rasm. O'zbekistonda sug'urta infratuzilmasi elementlarining tasnifi<sup>10</sup>**

<sup>10</sup> Muallif tomonidan ilmiy manbalarni tahlil qilish asosida tuzilgan.

Umuman olganda, mazkur infratuzilma elementlari o‘zaro uzviy bog‘liq holda faoliyat yuritib, sug‘urta bozorining moliyaviy barqarorligi, shaffofligi va raqobatbardoshligini ta‘minlashga xizmat qiladi (3-rasmga qarang).

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda sug‘urta bozorini tartibga solishning moliyaviy mexanizmlari: amaliyot, tahlil va baholash”** deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekistonda sug‘urta bozorini davlat tomonidan tartibga solishning amaldagi moliyaviy mexanizmlari kompleks tahlil qilinib, ularni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sug‘urta bozorining barqaror rivojlanishi, avvalo, sug‘urta kompaniyalarining kapitallashuv darajasi va to‘lovga qobiliyatligi bilan bevosita bog‘liqdir.

Tahlillar davomida 2020–2025 yillar oralig‘ida sug‘urta bozorida institutsional o‘zgarishlar sodir bo‘lgani, dastlabki bosqichda yangi kompaniyalar faol kirib kelgan bo‘lsa, keyingi davrda prudensial talablarning kuchayishi natijasida moliyaviy jihatdan zaif subyektlarning bozordan chiqib ketishi kuzatilgani aniqlandi. Bu jarayon sug‘urta bozorida konsolidatsiya va sifat jihatidan yangilanishni ta‘minlagan.

Shuningdek, sug‘urta bozorida mavjud moliyaviy mexanizmlar – ustav kapitaliga qo‘yiladigan minimal talablar, soliq imtiyozlari, qayta sug‘urtalash tizimi hamda prudensial nazorat instrumentlari – sug‘urtalovchilarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynashi asoslab berilgan . Xususan, ustav kapitali miqdorining bosqichma-bosqich oshirilishi bozorni institutsional “tozalash”ga xizmat qilgani, natijada kapital yetarliligiga ega kompaniyalar ulushi ortgani qayd etilgan (2-jadvalga qarang).

Tahlil natijalariga ko‘ra, 2020–2022-yillarda sug‘urta bozorida yangi kompaniyalarni litsenziyalash jarayoni nisbatan faol bo‘lgan. Xususan, “Aria sug‘urta tashkiloti”, “Semurg Insurance”, “Trust Insurance” hamda “NEO Insurance Corp” kabi kompaniyalarning bozorga kirib kelishi sug‘urta sektorining kengayish bosqichida ekanligini ko‘rsatadi. Bu davrda bozor infratuzilmasi shakllanib, raqobat muhiti kengaya boshlagan.

Biroq, 2023–2025-yillarda litsenziyalarni bekor qilish holatlarining keskin ortishi kuzatiladi. Ayniqsa, “Garant Insurance Group”, “Universal sug‘urta”, “DD General Insurance”, “Euroasia Life” va “New Life Insurance” kabi kompaniyalar faoliyatining to‘xtatilishi sug‘urta bozorida sifat jihatdan transformatsiya jarayonlari kechayotganidan dalolat beradi.

Bundan tashqari, sug‘urta bozorining rivojlanish ko‘rsatkichlari tahlili sug‘urta mukofotlari hajmining sezilarli o‘sishiga qaramasdan, uning YaIMdagi ulushi va sug‘urta xizmatlari zichligi hali past darajada qolayotganini ko‘rsatdi. Bu esa sug‘urta xizmatlarini kengaytirish, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish va yangi sug‘urta mahsulotlarini joriy etish zarurligini anglatadi.

**2020-2025-yillarda sug'urta faoliyatini amalga oshirish bo'yicha  
litsenziyalarning o'zgarishi<sup>11</sup>**

| t/r | Sug'urta kompaniyalari                         | Sodir bo'lgan<br>yillar | Sug'urta<br>sohasi | Sug'urta<br>faoliyatini<br>amalga<br>oshirish<br>bo'yicha<br>litsenziya<br>berilgan | Sug'urta<br>faoliyatini<br>amalga<br>oshirish<br>litsenziyasi<br>bekor<br>qilingan | Litsenziya<br>bekor<br>qilinishiga<br>asos |
|-----|------------------------------------------------|-------------------------|--------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------|
| 1   | "Aria sug'urta tashkiloti" AJ                  | 2020                    | Umumiy             | +                                                                                   | –                                                                                  | –                                          |
| 2   | "Semurg Insurance" AJ                          | 2020                    | Umumiy             | +                                                                                   | –                                                                                  | –                                          |
| 3   | "Sharq - sug'urta" AJ                          | 2021                    | Umumiy             | +                                                                                   | –                                                                                  | –                                          |
| 4   | "Trust – Insurance" AJ                         | 2021                    | Umumiy             | +                                                                                   | –                                                                                  | –                                          |
| 5   | "Neo Insurance Corp" AJ                        | 2022                    | Umumiy             | +                                                                                   | –                                                                                  | –                                          |
| 6   | "Garant Insurance Group" AJ                    | 2022                    | Umumiy             | –                                                                                   | +                                                                                  | Moliyaviy<br>sanksiyalar                   |
| 7   | "Asko-Vostok" AJ                               | 2024                    | Umumiy             | –                                                                                   | +                                                                                  | Moliyaviy<br>sanksiyalar                   |
| 8   | "Universal-Sug'urta" AJ                        | 2024                    | Umumiy             | –                                                                                   | +                                                                                  | Moliyaviy<br>sanksiyalar                   |
| 9   | "DD-General Insurance" AJ                      | 2024                    | Umumiy             | –                                                                                   | +                                                                                  | Moliyaviy<br>sanksiyalar                   |
| 10  | "Unipolis" AJ                                  | 2024                    | Umumiy             | –                                                                                   | +                                                                                  | Kapitallashuv<br>muammolari                |
| 11  | "Sharq - sug'urta" AJ                          | 2024                    | Umumiy             | –                                                                                   | +                                                                                  | Moliyaviy<br>sanksiyalar                   |
| 12  | "New Life Insurance" AJ                        | 2024                    | Hayot              | –                                                                                   | +                                                                                  | Moliyaviy<br>sanksiyalar                   |
| 13  | "Euroasia Life" AJ                             | 2024                    | Hayot              | –                                                                                   | +                                                                                  | Moliyaviy<br>sanksiyalar                   |
| 14  | "Farovon sug'urta" AJ<br>(Alskom-Vita)         | 2024                    | Hayot              | –                                                                                   | +                                                                                  | Ustav<br>kapitalida<br>muammolar           |
| 15  | "Omad Sug'urta" AJ                             | 2025                    | Umumiy             | –                                                                                   | +                                                                                  | Moliyaviy<br>sanksiyalar                   |
| 16  | "Prestige Insurance" AJ                        | 2025                    | Umumiy             | +                                                                                   | –                                                                                  | –                                          |
| 17  | "O'zbekiston qayta sug'urta<br>kompaniyasi" AJ | 2025                    | Umumiy             | +                                                                                   | –                                                                                  | –                                          |
| 18  | "TBC Sug'urta" AJ                              | 2025                    | Hayot              | +                                                                                   | –                                                                                  | –                                          |

Mazkur jadvalda O'zbekiston Respublikasida sug'urta tashkilotlari ustav kapitalining eng kam miqdorlarini differensial tarzda belgilash dinamikasi aks ettirilgan bo'lib, u sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solishning muhim moliyaviy instrumenti sifatida tahlil qilinadi. Jadval ma'lumotlari 2003-yildan 2029-yilgacha bo'lgan davrni qamrab olib, sug'urta faoliyatining turli segmentlari kesimida kapital talablarining bosqichma-bosqich oshirib borilganini ko'rsatadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, hayotni sug'urtalash, umumiy sug'urta hamda qayta sug'urtalash sohalarida ustav kapitaliga qo'yiladigan minimal talablar

<sup>11</sup> Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi, Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan jamlandi.

izchil ravishda oshirilgan. Xususan, qayta sug'urtalash faoliyati uchun talab etiladigan kapital miqdori eng yuqori darajada belgilangan bo'lib, bu mazkur segmentda risklarning yuqoriligi hamda moliyaviy barqarorlikka qo'yiladigan talablarning keskinligi bilan izohlanadi.

### 3-jadval

#### Sug'urta tashkilotlari ustav kapitalining eng kam miqdorlarini differensial tarzda belgilash<sup>12</sup>

| Soha/tarmoqlar                                      | 2003-yil 1-avgust<br>(mln. AQSH dollari) | 2010-yil 1-yanvar<br>(mln. yevro) | 2012-yil 1-iyul<br>(mln. yevro)               | 2014-yil 1-iyul<br>(mln. yevro) | 2018-yil 1-iyul<br>(mlrd.so' m) | 2020-yil 1-iyul<br>(mlrd.so' m) | 2022-yil 1-iyul<br>(mlrd.so' m) | 2025-yil 1-oktabr<br>(mlrd. so' mda) | 2027-yil 1-oktabr<br>(mlrd. so' mda) | 2029-yil 1-oktabr<br>(mlrd. so' mda) |
|-----------------------------------------------------|------------------------------------------|-----------------------------------|-----------------------------------------------|---------------------------------|---------------------------------|---------------------------------|---------------------------------|--------------------------------------|--------------------------------------|--------------------------------------|
| Hayotni sug'urta qilish sohasida ixtiyoriy sug'urta | 0,25                                     | 1                                 | 1,5                                           | 2                               | 10                              | 15                              | 20                              | 25                                   | 30                                   | 35                                   |
| Umumiy sug'urta sohasida ixtiyoriy sug'urta         | 0,15                                     | 0,75                              | 1,12                                          | 1                               | 8                               | 15                              | 20                              | 35                                   | 45                                   | 60                                   |
| Umumiy sug'urta sohasida majburiy sug'urta          | 0,5                                      | 1,5                               | 2,25                                          | 3                               | 15                              | 25                              | 35                              | 50                                   | 75                                   | 100                                  |
| Hayotni sug'urta qilish sohasida majburiy sug'urta  | 0,5                                      | 1,5                               | 2,25                                          | 3                               | 15                              | 25                              | 35                              | 40                                   | 45                                   | 50                                   |
| Faqat qayta sug'urta                                | 2                                        | 4                                 | 5                                             | 6                               | 30                              | 35                              | 45                              | 80                                   | 100                                  | 120                                  |
| Huquqiy asos                                        | 2002-yil 27-<br>noyabrda                 | 2008-yil 21-<br>maydagi<br>PQ-872 | 26.11.2010y. PQ-1438,<br>31.05.2011y. PQ-1544 |                                 |                                 | 29.09.2017y.<br>PF-5197         | 02.08.2019y.<br>PQ-4412         | 01.03.2024y.<br>PQ-108               |                                      |                                      |

Mazkur differensial yondashuv sug'urta bozorida risk darajasi, majburiyatlar hajmi hamda faoliyat xususiyatlariga mos ravishda kapital yetarliligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ustav kapitali miqdorining bosqichma-bosqich oshirilishi natijasida moliyaviy jihatdan zaif sug'urta kompaniyalari bozordan chiqib ketib, barqaror va kapitallashgan subyektlar ulushi ortishi kuzatilmoqda.

Quyidagi jadvalda 2025-yil holatiga ko'ra jahon sug'urta bozori mamlakatlar kesimida asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar orqali tahlil qilingan bo'lib, unda sug'urta mukofotlari hajmi, ularning YaIMdagi ulushi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'urta xarajatlari hamda global bozordagi ulushi kabi muhim indikatorlar aks ettirilgan.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, jahon sug'urta bozorida yetakchi o'rinni AQSH egallab, uning ulushi 44,9 foizni tashkil etadi. Ushbu mamlakatda sug'urta

<sup>12</sup> Muallif tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy manbalarni tahlil qilish asosida tuzilgan.

mukofotlarining YaIMdagi ulushi 10,5 foizga teng bo'lib, bu sug'urta tizimining yuqori darajada rivojlanganligi va aholining moliyaviy himoya vositalariga bo'lgan talabining yuqoriligini ifodalaydi. Yevropa davlatlari, xususan Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniya ham sug'urtaning iqtisodiyotdagi ulushi va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'urta xarajatlari bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lib, bu mamlakatlarda sug'urta madaniyati shakllanganligini ko'rsatadi.

#### 4-jadval

##### Jahon sug'urta bozori: mamlakatlar kesimida asosiy moliyaviy indikatorlar va ularning dinamik tavsifi (2025-yil)<sup>13</sup>

| Mamlakatlar/<br>o'lchov | YaIM<br>hajmi      | Aholi jon<br>boshiga YIM<br>hajmi | Sug'urta<br>mukofoti | YIMda<br>Sug'urta<br>mukofotlari<br>ulushi | Aholi jon<br>boshiga<br>sug'urta<br>mukofoti | Jahon<br>sug'urta<br>bozoridagi<br>ulushi |
|-------------------------|--------------------|-----------------------------------|----------------------|--------------------------------------------|----------------------------------------------|-------------------------------------------|
|                         | mlrd.AQSH<br>doll. | mlrd.AQSHdoll.                    | mlrd.AQSH<br>doll.   | foiz                                       | mlrd.AQSH<br>doll.                           | foiz                                      |
| AQSH                    | 30 615,7           | 89 599,0                          | 3 226,7              | 10,5                                       | 9 640,0                                      | 44,9                                      |
| Avstraliya              | 1 829,5            | 65 946,0                          | 95,0                 | 5,2                                        | 3 600,0                                      | 1,3                                       |
| Braziliya               | 2 256,9            | 10 578,0                          | 85,4                 | 3,8                                        | 390,0                                        | 1,2                                       |
| Buyuk britaniya         | 3 958,8            | 56 661,0                          | 374,9                | 9,5                                        | 4 759,0                                      | 5,2                                       |
| Fransiya                | 3 361,6            | 48 982,0                          | 282,8                | 8,4                                        | 3 867,0                                      | 3,9                                       |
| Germaniya               | 5 013,6            | 59 925,0                          | 245,5                | 4,9                                        | 2 910,0                                      | 3,4                                       |
| Hindiston               | 4 125,2            | 2 818,0                           | 136,0                | 3,3                                        | 95,0                                         | 1,9                                       |
| Indoneziya              | 1 443,3            | 5 074,0                           | 20,0                 | 1,4                                        | 70,0                                         | 0,5                                       |
| Ispaniya                | 1 891,4            | 38 040,0                          | 83,4                 | 4,4                                        | 1 700,0                                      | 1,1                                       |
| Italiya                 | 2 543,7            | 43 161,0                          | 159,4                | 6,3                                        | 2 708,0                                      | 2,2                                       |
| Janubiy koreya          | 1 858,6            | 35 962,0                          | 185,9                | 10,0                                       | 3 603,0                                      | 2,6                                       |
| Kanada                  | 2 283,6            | 54 935,0                          | 170,5                | 7,5                                        | 4 267,0                                      | 2,4                                       |
| Rossiya                 | 2 540,7            | 17 446,0                          | 30,0                 | 1,2                                        | 200,0                                        | 0,5                                       |
| Xitoy                   | 19 398,6           | 13 806,0                          | 723,7                | 3,7                                        | 512,0                                        | 10,1                                      |
| Yaponiya                | 4 279,8            | 34 713,0                          | 362,7                | 8,5                                        | 2 900,0                                      | 5,0                                       |
| O'zbekiston             | 137,5              | 3 647,0                           | 1,0                  | 0,7                                        | 25,0                                         | 0,1                                       |

O'zbekiston sug'urta bozori ko'rsatkichlari tahlili esa mamlakatda sug'urta tizimi hali rivojlanish bosqichida ekanligini ko'rsatadi. Xususan, sug'urta mukofotlarining YaIMdagi ulushi 0,7 foizni tashkil etib, rivojlangan davlatlarga nisbatan sezilarli darajada past. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'urta xarajatlari ham past darajada bo'lib, sug'urta xizmatlarining ommalashuvi yetarli emasligini bildiradi.

Bog'liq o'zgaruvchi sifatida sug'urta mukofotlari hajmi tanlanib, mustaqil o'zgaruvchilar sifatida aholi daromadlari, inflyatsiya darajasi hamda foiz stavkalari kiritildi. Dastlabki bosqichda barcha o'zgaruvchilar logarifmik shaklga o'tkazildi, bu esa model natijalarini elastiklik ko'rinishida talqin qilish imkonini berdi.

Tahlil natijasida quyidagi ekonometrik model shakllantirildi:

$$\ln(Premiums) = \beta_0 + \beta_1 \ln(Income) + \beta_2 Inflation + \beta_3 Interest + \varepsilon \quad (1)$$

Bu yerda:

<sup>13</sup> Xalqaro valyuta jamg'armasi va boshqa manbaalar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

$\ln(\text{Premiums})$  - sug'urta mukofotlari hajmining natural logarifmik ko'rinishini ifodalaydi. Ushbu o'zgaruvchi sug'urta bozorining asosiy natijaviy ko'rsatkichi bo'lib, sug'urta xizmatlariga bo'lgan umumiy talab darajasini aks ettiradi;

$\beta_0$ —modelning erkin hadi bo'lib, barcha mustaqil o'zgaruvchilar nolga teng bo'lgan sharoitda sug'urta mukofotlari hajmining logarifmik qiymatini ifodalaydi;

$\beta_1 \ln(\text{Income})$ — $\beta_1$  koeffitsiyenti elastiklikni ifodalaydi, ya'ni daromadlarning 1 foizga oshishi sug'urta mukofotlari hajmining o'rtacha necha foizga o'zgarishini ko'rsatadi,  $\ln(\text{Income})$  aholi daromadlarining logarifmik ifodasi bo'lib, sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabning asosiy determinantlaridan biri hisoblanadi;

$\beta_2 \text{Inflation}$ — Inflation mamlakatdagi narxlar umumiy darajasining o'sishini ifodalaydi va sug'urta bozoriga bilvosita ta'sir ko'rsatadi.  $\beta_2$  —koeffitsiyenti inflyatsiyaning sug'urta mukofotlariga ta'sir darajasini aks ettiradi. Empirik natijalarda ushbu koeffitsiyent manfiy bo'lib, inflyatsiya oshishi real daromadlarning pasayishiga hamda uzoq muddatli moliyaviy instrumentlarga bo'lgan ishonchning kamayishiga olib kelishini ko'rsatadi;

$\beta_3 \text{Interest}$ —Interest moliyaviy bozordagi foiz stavkalarini ifodalaydi va sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyati bilan bevosita bog'liqdir.  $\beta_3$  koeffitsiyenti foiz stavkalarining sug'urta mukofotlariga ta'sirini ko'rsatadi. Musbat qiymat ushbu omilning sug'urta sektorini rag'batlantiruvchi xususiyatga ega ekanligini bildiradi.

$\varepsilon$  – modelga kiritilmagan omillar, o'lchash xatoliklari hamda tasodifiy tebranishlarni ifodalaydi.

## 5-jadval

Dependent Variable: LN\_PREMIUMS

Method: Least Squares

Date: 03/21/26 Time: 21:10

Sample: 2014 2025

Included observations: 12

| Variable           | Coefficient | Std. Error            | t-Statistic | Prob.    |
|--------------------|-------------|-----------------------|-------------|----------|
| LN_INCOME          | 0.592261    | 0.101533              | 5.833167    | 0.0002   |
| INFLATION          | -0.124572   | 0.052023              | -2.394536   | 0.0403   |
| INTEREST           | 0.244613    | 0.091067              | 2.686074    | 0.0250   |
| R-squared          | 0.834533    | Mean dependent var    |             | 7.772549 |
| Adjusted R-squared | 0.797763    | S.D. dependent var    |             | 1.174229 |
| S.E. of regression | 0.528060    | Akaike info criterion |             | 1.773104 |
| Sum squared resid  | 2.509626    | Schwarz criterion     |             | 1.894331 |
| Log likelihood     | -7.638626   | Hannan-Quinn criter.  |             | 1.728222 |
| Durbin-Watson stat | 0.762982    |                       |             |          |

Model natijalari EViews dasturi yordamida baholandi va quyidagi asosiy natijalar aniqlandi.

Birinchidan, modelning determinatsiya koeffitsiyenti ( $R^2=0.83$ ) yuqori darajada bo'lib, bu tanlangan omillar sug'urta mukofotlari hajmidagi o'zgarishlarning 83 foizini tushuntirishini anglatadi. Ushbu natija modelning statistik jihatdan yetarli darajada ishonchli ekanligini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, aholi daromadlari sug'urta bozorining rivojlanishiga eng muhim ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida namoyon bo'ldi. Xususan, daromadlarning 1 foizga oshishi sug'urta mukofotlari hajmini o'rtacha 0.59 foizga oshirishiga olib keladi ( $p<0.01$ ). Bu natija sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabning aholi moliyaviy imkoniyatlariga bevosita bog'liqligini tasdiqlaydi.

Uchinchidan, inflyatsiya darajasi sug'urta bozoriga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Inflyatsiyaning oshishi sug'urta mukofotlari hajmining qisqarishiga olib keladi ( $p<0.05$ ). Bu holat aholining real daromadlari kamayishi hamda uzoq muddatli moliyaviy majburiyatlarga bo'lgan ishonchning pasayishi bilan izohlanadi.


To'rtinchidan, foiz stavkalari sug'urta mukofotlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kuzatildi ( $p<0.05$ ). Mazkur natija sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyati va moliyaviy resurslarni boshqarish samaradorligi bilan izohlanadi. Ya'ni, foiz stavkalari oshishi investitsiya daromadlilikini ko'paytirib, sug'urta faoliyatining kengayishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, model natijalarida Durbin–Watson statistikasi past darajada ( $DW=0.76$ ) ekanligi aniqlanib, bu avtokorrelyatsiya mavjudligini ko'rsatadi (5-jadvalga qarang).

4-rasm ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, sug'urta mukofotlari hajmi tahlil etilayotgan davr mobaynida barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, ayniqsa 2020-yildan keyin sezilarli jadallashuv kuzatilgan. Xususan, 2014-yildagi 0,4 trln so'mlik ko'rsatkich 2025-yilga kelib 13,5 trln so'mga yetgan. Bu esa sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabning ortib borayotganligini hamda bozor hajmining kengayayotganini anglatadi.


Shu bilan birga, ustav kapitali ko'rsatkichlari ham ijobiy dinamikani namoyon etib, 2014-yildagi 0,4 trln so'mdan 2025-yilda 4,0 trln so'mga yetgan. Ushbu o'sish sug'urta kompaniyalariga qo'yiladigan minimal kapital talablarining bosqichma-bosqich oshirilishi hamda prudensial nazorat mexanizmlarining kuchaytirilishi bilan izohlanadi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, sug'urta ko'rsatkichlari miqdor jihatdan oshgan bo'lsada, so'nggi 10 yillikda sug'urta tashkilotlari faoliyatini nazorat qilish va tartibga solishda moliyaviy mexanizmlar nuqtai nazardan muhim o'zgarishlar amalga oshirilmagan. Biroq sug'urta bozorini rivojlantirishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda, yo'l xaritalarida alohida vazifa sifatida keltirilgan bo'lsada, ijrosi amalga oshmagan.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, sug'urta mukofotlari hajmi tahlil etilayotgan davr mobaynida barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, ayniqsa 2020-yildan keyin sezilarli jadallashuv kuzatilgan. Xususan, 2014-yildagi 0,4 trln so'mlik ko'rsatkich 2025-yilga kelib 13,5 trln so'mga yetgan. Bu esa sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabning ortib borayotganligini hamda bozor hajmining kengayayotganini anglatadi (4-rasmga qarang).



**4-rasm. O'zbekiston Respublikasida sug'urta mukofotlari, ustav kapitali va ularning YaIMga nisbati dinamikasi (trln.so'm, foizda)<sup>14</sup>**

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, sug'urta kompaniyalari tomonidan amalga oshirilgan investitsiyalar hajmi izchil o'sish tendensiyasiga ega. Xususan, 2014-yildagi 623,7 mlrd so'mlik investitsiya hajmi 2025-yilga kelib 9 550,0 mlrd so'mga yetgan.



**5-rasm. Sug'urta kompaniyalari soni va ularning investitsiya faoliyati<sup>15</sup>**  
(mlrd.so'm, dona)

Shu bilan birga, sug'urta kompaniyalari soni dinamikasida o'zgaruvchan tendensiya kuzatiladi. 2014-yilda 31 ta kompaniya faoliyat yuritgan bo'lsa, 2016-

<sup>14</sup> Sug'urta faoliyatini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi hamda Davlat statistiga agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi


<sup>15</sup> Vakolatli davlat organi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

yilda ularning soni 26 taga qisqargan. Keyingi yillarda esa kompaniyalar soni ortib borib, 2021-yilda 42 taga yetgan. Biroq 2022–2024-yillarda yana ma’lum darajada kamayish kuzatilib, 2024-yilda 33 taga tushgan va 2025-yilda 36 taga yetgan.

5-rasmdan ko‘rishimiz mumkinki sug‘urta bozorida sug‘urta kompaniyalari sonining kamayishi sug‘urta kompaniyalarining investitsiya portfelini keskin pasayishiga olib kelmagan. Bunga asosiy sabablardan biri sifatida davlat tomonidan tizimli emas balki majburlov choralari sifatida sug‘urta tashkilotlarining ustav kapitallariga qo‘yilgan minimal talablarning oshirish evaziga amalga oshganligini ko‘rishimiz mumkin.

Mazkur tendensiyalar shuni ko‘rsatadiki, sug‘urta kompaniyalari sonining kamayishi investitsiya hajmining qisqarishiga olib kelmagan. Aksincha, investitsiya faoliyatining barqaror o‘ssishi sug‘urta bozorida konsolidatsiya jarayonlari yuz berayotganini, ya’ni moliyaviy jihatdan kuchli va kapitallashgan kompaniyalar ulushi ortib borayotganini anglatadi.

Mazkur rasmda “Alskom sug‘urta kompaniyasi” AJning 2019–2025-yillar davomida sug‘urta mukofotlari va tovon to‘lovlari dinamikasi hamda ularning o‘zaro nisbatlari aks ettirilgan bo‘lib, kompaniyaning moliyaviy barqarorligi va rivojlanish tendensiyalarini baholash imkonini beradi.



#### 6-rasm. “Alskom sug‘urta kompaniyasi” AJning 2019-2025 yillarda sug‘urta mukofoti va tovonni o‘shish tendensiyasi<sup>16</sup> (mlrd.so‘m, foizda)

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, sug‘urta mukofotlari hajmi tahlil etilayotgan davr mobaynida izchil o‘shib borgan. Xususan, 2019-yildagi 48,5 mlrd so‘mlik ko‘rsatkich 2025-yilda 279,1 mlrd so‘mga yetgan. Bu esa kompaniyaning sug‘urta portfelini kengayayotganini va bozordagi faoliyat ko‘lami ortib borayotganini anglatadi. Shu bilan birga, tovon to‘lovlari ham mos ravishda oshib, 2019-yildagi 8,2 mlrd so‘mdan 2025-yilda 97,0 mlrd so‘mga yetgan (6-rasmga qarang).

Umuman olganda, ikkinchi bob doirasida olib borilgan tadqiqotlar sug‘urta bozorini davlat tomonidan tartibga solishning moliyaviy mexanizmlarini

<sup>16</sup> Vakolatli davlat organi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

takomillashtirish, xususan riskga asoslangan nazorat tizimini joriy etish, kapitallashtirishni rag'batlantirish va raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish orqali milliy sug'urta bozorining barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirish mumkinligini ko'rsatdi.

Dissertatsiyaning – **“Sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solishda prudensial me'yorlar va raqamlashtirishning istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solish tizimining transformatsiyasi asosan prudensial me'yorlarni takomillashtirish va raqamlashtirish jarayonlari bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Xususan, O'zbekistonda amaldagi tartibga solish tizimi Solvency I modeliga yaqin bo'lib, unda kapital yetarliligi va to'lovga qobiliyatlilik ko'rsatkichlari asosan normativ chegaralar orqali baholanadi. Biroq xalqaro amaliyot, ayniqsa Solvency II konsepsiyasi, riskga asoslangan yondashuvni ustuvor deb biladi, bunda kapital talablari sug'urta kompaniyasining individual risk profiliga bog'liq holda shakllantiriladi

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy sug'urta bozorida mukofotlar va tovonlar dinamikasi barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, bu sektorning kengayib borayotganini anglatadi. Shu bilan birga, to'lovlar ulushining o'zgaruvchanligi risk-menejment tizimini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, 2022-yilda zararlar darajasining keskin oshishi sug'urta portfelidagi risklarning to'g'ri diversifikatsiya qilinmaganligini ko'rsatadi, keyingi yillarda esa ushbu ko'rsatkichning barqarorlashuvi nazorat mexanizmlarining kuchayganini bildiradi.

Raqamlashtirish jarayonlari esa tartibga solish samaradorligini tubdan oshiruvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. InsurTech, RegTech va SupTech texnologiyalarining joriy etilishi ma'lumotlar asosida real vaqt rejimida nazoratni amalga oshirish, axborot assimetriyasini kamaytirish hamda nazorat xarajatlarini qisqartirish imkonini beradi. Xususan, yagona raqamli platformalar orqali sug'urta polislarini ro'yxatdan o'tkazish va monitoring qilish tizimi prudensial ko'rsatkichlarni aniq va tezkor baholash imkonini yaratadi.

“Alskom sug'urta kompaniyasi” AJni raqamli sug'urta faoliyatini rivojlantirish strategiyasi, innovatsion rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish hamda raqamli texnologiyalar asosida sug'urta bozori faoliyatini rivojlantirishning istiqbollari singari masalalari talqinida tegishli taklif va tavsiyalar alohida ko'rib chiqilgan.

“Alskom sug'urta kompaniyasi” AJning raqamli sug'urta faoliyatini rivojlantirish strategiyasida telematika texnologiyalari asosida sug'urta tariflarini belgilash orqali sug'urta bozori mijozlarning ehtiyojlariga tezkor javob berishni, shaffof va adolatli xizmat ko'rsatishni, shuningdek, inson hayoti va moliyaviy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ilg'or yondashuvlarni talab qilmoqda.

Tadqiqotimiz doirasidagi taklif etilayotgan ushbu strategiya shunchaki texnologik yangilanish emas, balki insonlar taqdiriga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadigan yuksak ijtimoiy va iqtisodiy vazifani bajarish demakdir.

Sug'urta kompaniyasining raqamli xizmatlarini kengaytirish va insoniy ehtiyojlarga tezkor hamda sifatli javob berish imkoniyatini yaratish, birinchi

navbatda, korporativ boshqaruv tizimining moslashuvchanligi va samaradorligini oshiradi. Aynan raqamli transformatsiya orqali mijozlar bilan interaktiv aloqalar mustahkamlanib, ularning ehtiyojlari va muammolariga insoniy yondashuv asosida tezkor yechimlar taqdim etadi. Yuqoridagi strategiyani amalga oshirish uchun korxonaning raqamli transformatsiyalashda sug'urta qiymat zanjirini yaratishi uchun omillar majmuasini ishlab chiqish talab etiladi.

Shu bilan bir qatorda, ushbu yondashuv inson omiliga asoslangan qadriyatlarni texnologik taraqqiyot bilan uyg'unlashtirib, fuqarolarning moliyaviy xavfsizligini kafolatlovchi zamonaviy sug'urta ekotizimini shakllantiradi. Natijada, aholining moliyaviy savodxonligi va sug'urtaga bo'lgan ishonchi oshadi, sug'urta bozori yuqori likvidlilik va investitsion jozibadorlikka erishadi.

Mazkur mexanizmni faollashtirish O'zbekiston iqtisodiy modelida diversifikatsiyalashgan raqamli xizmatlar tarmog'ini shakllantirish, kiberxavfsizlik me'yorlarini mustahkamlash va resurslardan samarali foydalanish orqali iqtisodiy o'sishning yangi drayverini yaratishga imkon beradi.

Kapital darajasi bilan aktivlar va majburiyatlar o'rtasidagi salbiy korrelyatsiya (mos ravishda -0.65 va -0.06) kapital tuzilmasining optimal emasligini yoki yuqori darajada majburiyatlar bilan moliyalashtirilayotganini ko'rsatadi. Bu moliyaviy risklarni oshiradi va kompaniya likvidligi uchun xavf tug'diradi. Shu jihatdan, kompaniya uchun optimal moliyaviy leverage darajasini qayta ko'rib chiqish va kapital yetarliligini oshirish tavsiya etiladi.

Majburiyatlar va sug'urta zaxiralari o'rtasidagi ijobiy korrelyatsiya (0.61) majburiyatlarning katta qismi sug'urta zaxiralari orqali ta'minlanayotganidan dalolat beradi. Bunday yondashuv kompaniyaning moliyaviy barqarorligini oshirish va uzoq muddatli investitsiyaviy resurslarni jalb qilish imkonini beradi.

Shuningdek, sug'urta tashkilotlarini to'lovga qobiliyatsizlik holatida sanatsiya qilishning ilmiy asoslanganligini baholash maqsadida 2023-2025-yillarda faoliyat yuritgan 42 ta sug'urta kompaniyasi ma'lumotlari asosida sug'urta tashkilotlarining yashovchanlik modeli qo'llanildi. Tahlil natijalari sug'urta zaxiralari yetarliligi, kapital yetarliligi, qayta sug'urta ulushi, likvidlik koeffitsiyenti va investitsiya daromadliligi bankrotlik xavfini statistik jihatdan sezilarli darajada kamaytirishini, muammoli kreditlar (NPL) ulushining ortishi esa bankrotlik xavfini oshirishini ko'rsatdi.

Survival tahlili natijalariga ko'ra, optimistik ssenariyda sug'urta kompaniyalarining 60 oy davomida moliyaviy barqaror faoliyat yuritish ehtimoli 63 foizni, bazaviy 48 foizni, pessimist esa 26 foizni tashkil etdi. 2030-yilgacha amalga oshirilgan prognozlarga ko'ra, tavsiya etilgan prudensial choralar qo'llanilganda bankrotlik xavfi 8–10 foizgacha oshishi mumkinligi aniqlandi.

Olingan natijalar asosida sug'urta kompaniyalarida moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini doimiy monitoring qilish, sug'urta zaxiralari va kapital yetarliligiga qo'yiladigan prudensial talablarni bozor mexanizmlari asosida kuchaytirish, sug'urta portfelini boshqa sug'urtalovchiga o'tkazish hamda davlat ishtirokidagi sanatsiya mexanizmlarini qo'llash bo'yicha kompleks yondashuv ishlab chiqildi.

## XULOSA

Tadqiqotlarimiz asosida quyidagi ilmiy xulosa va takliflarni ishlab chiqishga muvaffaq bo'ldik:

1. Sug'urta bozori iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida risklarni qayta taqsimlash, moliyaviy resurslarni safarbar etish va ijtimoiy himoyani ta'minlash funksiyalarini bajaradi. Shu sababli uni davlat tomonidan tartibga solish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning zarur sharti hisoblanishi asoslangan.

2. Sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solishning moliyaviy mexanizmi – bu davlat tomonidan moliyaviy instrumentlar, usullar va vositalar orqali sug'urta munosabatlarini boshqarish tizimi bo'lib, u bozor barqarorligi va ishtirokchilar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qilishi, mazkur mexanizmlar orqali davlat bevosita va bilvosita ta'sir o'tkaza olish mexanizmlari shakllantirilgan.

3. Prudensial tartibga solish sug'urta bozorini boshqarishda asosiy yo'nalishlardan biri bo'lib, u sug'urtalovchilarning to'lovga qobiliyatligini, kapital yetarliligini va moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. Sug'urta bozorini tartibga solishda davlatning roli faqat nazorat qilish bilan cheklanmay, balki bozor infratuzilmasini rivojlantirish, raqobat muhitini shakllantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilishni ham o'z ichiga olishi ilmiy jihatdan asoslangan.

4. Solvency II tamoyillari asosida shakllangan riskka yo'naltirilgan kapital modeli sug'urta kompaniyalarining real moliyaviy holatini aniqroq baholash imkonini berishi, milliy tizimda kapitalni risklar bilan bog'lash va ichki modellashirish usullarini joriy etish asoslari keltirilgan.

5. Sug'urta bozorida so'nggi yillarda kuzatilgan institutsional o'zgarishlar, xususan kompaniyalar sonining qisqarishi va litsenziyalar bekor qilinishi jarayonlari bozorning konsolidatsiyalashuvini hamda sifat jihatdan yangilanishini ta'minlagan.

6. Sug'urta tashkilotlari ustav kapitaliga qo'yiladigan minimal talablarning bosqichma-bosqich oshirilishi moliyaviy jihatdan zaif subyektlarning bozordan chiqib ketishiga olib kelib, kapitallashtirish va barqaror kompaniyalar ulushining ortishiga xizmat qilgan.

7. Amaldagi moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish uchun kapitallashtirish rag'batlantirish, prudensial nazoratni kuchaytirish, qayta sug'urtalash tizimini rivojlantirish hamda raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan.

8. Tadqiqot natijasida sug'urta bozorini tartibga solishning moliyaviy mexanizmida prudensial me'yorlar bozor barqarorligini ta'minlovchi asosiy instrumentlardan biri ekanligi asoslandi. Prudensial me'yorlarni sug'urta bozori professional ishtirokchilarining kapital yetarliligi, texnik zaxiralari, likvidligi, to'lovga qobiliyatligi, investitsiya portfeli sifati, qayta sug'urtalash darajasi va qabul qilingan tavakkalchiliklar hajmi bilan uzviy bog'liq holda belgilash zarurligi ilmiy jihatdan isbotlandi. Bunday yondashuv riskga asoslangan nazorat tamoyillarini amaliyotga joriy etish, sug'urta bozori subyektlari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, tizimli risklarni cheklash hamda sug'urta bozori moliyaviy barqarorligi

va uzoq muddatli kapitallashuvini ta'minlashning muhim omili ekanligi xulosa qilindi.

9. Tahlil natijalariga ko'ra, institutsional islohotlar amalga oshirilgan davrlarda sug'urta mukofotlari, sug'urta to'lovlari, kapital yetarliligi, aktivlar hajmi va investitsiya portfeli ko'rsatkichlarining o'rtacha qiymatlarida statistik jihatdan ahamiyatli tebranishlar kuzatilgan. Bunday o'zgarishlar, bir tomondan, bozor ishtirokchilarining yangi prudensial talablar va nazorat mexanizmlariga moslashuvi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, sug'urta bozorida institutsional samaradorlikning oshishi uchun zarur bo'lgan transformatsion jarayonlarni aks ettiradi.

10. Ilmiy tadqiqot doirasida prudensial me'yorlar ta'siri doirasida sug'urta tashkilotlarining sanatsiya qilish, tugatish taklif etilgan metodologik yondashuvlar mamlakat sug'urta bozorida yuzaga keladigan tizimli muammolarni oldini olishga xizmat qildi

11. Sug'urta tashkilotlarining investitsion faoliyatiga ta'sir etuvchi moliyaviy mexanizmlar ekonometrik jihatdan baholanib, tijorat banklarining muammoli kreditlar (NPL) darajasi sug'urta tashkilotlari investitsiya portfelinin sifati va likvidligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi asoslandi. Natijada yuklatilgan sug'urta turlari bo'yicha sug'urta va investitsiya portfellarini shakllantirishda banklarning NPL ko'rsatkichlariga asoslangan riskga yo'naltirilgan prudensial cheklovlar hamda differensial investitsiya limitlarini joriy etish taklif etildi. Mazkur yondashuv sug'urta bozori moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va tizimli risklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. DSc.03/2025.27.12.I.30.01  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ  
ТАШКЕНТСКОМ МЕЖДУНАРОДНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**АБДУЛЛАЕВ ЭРКИНЖОН АЪЗАМОВИЧ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСОВОГО МЕХАНИЗМА  
ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ СТРАХОВОГО РЫНКА В  
УЗБЕКИСТАНЕ**

**08.00.07 – Финансы, денежное обращение и кредит**

**АВТОРЕФЕРАТ  
на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

**город Ташкент – 2026 год**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Академии наук Республики Узбекистан за номером B2022.4.PhD/Iqt2554.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета ([www.tiu.uz](http://www.tiu.uz)) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNeb» ([www.ziyo.net.uz](http://www.ziyo.net.uz)).

**Научный руководитель:** Рахмонов Дилшоджон Алиджонович  
доктор экономических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Турсунов Жахонгир Пулатович  
доктор экономических наук, профессор

Шаробиддинов Акрамджон Гойиббаевич  
кандидат экономических наук

**Ведущая организация:** Ташкентский химико-технологический институт

Защита диссертации состоится «12» 09 2026 года в 10<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.130.01 по присуждению ученых степеней при Ташкентском международном университете. (Адрес: 100114, г. Ташкент, ул. Малая кольцевая, 7. Тел.: (99895) 131-55-55; факс: (99895) 131-55-55; e-mail: [info@tiu.uz](mailto:info@tiu.uz))

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского международного университета (зарегистрирован под номером 59). Адрес: 100114, г. Ташкент, ул. Малая кольцевая, 7. Тел.: (99895) 131-55-55; факс: (99895) 131-55-55; e-mail: [info@tiu.uz](mailto:info@tiu.uz)

Автореферат диссертации разослан «14» 08 2026 года.

(реестр протокола рассылки № 45 от «24» 07 2026 года.).



**Н.Х.Жумаев**

Председатель научного совета по  
присуждению ученых степеней, доктор  
экономических наук, профессор



**И.Х.Абдурахмонов**

Ученый секретарь научного совета по  
присуждению ученых степеней, доктор  
экономических наук, доцент

**А.Р. Норов**

заместитель председателя научного  
семинара при научном совете по  
присуждению ученых степеней,  
профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Активизация экономических, геополитических и технологических процессов в мире, наряду с широким распространением цифровых и финансовых технологий в сфере страховых услуг, обуславливает необходимость совершенствования механизмов государственного регулирования профессиональных участников страхового рынка. Усиление требований риск-ориентированного надзора, а также ужесточение требований к ликвидности и доходности инвестиционных вложений страховых организаций и пруденциальных нормативов приводят к замедлению темпов роста страхового рынка. В глобальном масштабе геополитическая напряжённость, киберриски, экономическая нестабильность, стихийные бедствия и нарушения цепочек поставок препятствуют трансграничному расширению страхового рынка, а также способствуют увеличению частоты страховых случаев и размера убытков. Согласно данным Swiss Re Institute<sup>17</sup>, в 2026 году реальный рост мировых страховых премий, как ожидается, замедлится до 1,3 процента по сравнению с 3,9 процента в 2025 году. При этом реальный рост премий по страхованию жизни прогнозируется на уровне 2,3 процента, а по общему страхованию – 0,6 процента. Объём рынка цифрового страхования и технологий андеррайтинга на основе искусственного интеллекта, достигший в 2025 году 25,7 млрд. долларов США, в 2026 году, по прогнозам, увеличится до 35,3 млрд. долларов США<sup>18</sup>.

Согласно данным Организации экономического сотрудничества и развития (OECD)<sup>19</sup>, органы регулирования страховой деятельности наряду с макроэкономической нестабильностью относят страхование киберрисков и механизмы его регулирования к числу наиболее актуальных проблем, представляющих угрозу устойчивости страхового сектора. Сложность предварительной оценки размера убытков, ограниченность статистических данных и взаимосвязанность рисков сужают возможности определения страховых тарифов и потенциальных обязательств с применением традиционных актуарных методов. В связи с этим совершенствование риск-ориентированного надзора, стресс-тестирования, требований к достаточности капитала, платёжеспособности и перестрахованию, а также пруденциальных нормативов посредством финансовых механизмов рассматривается как одно из важнейших направлений развития страхового рынка.

Проводимые в Узбекистане реформы в сфере регулирования страхового рынка, институциональные преобразования системы уполномоченных государственных органов, установление дополнительных платежей при оказании страховых услуг (ежеквартальных взносов, платежей за электронный страховой полис), переход от страховых полисов на бумажном носителе к полностью электронному формату, а также цифровизация страховой

---

<sup>17</sup> <https://www.swissre.com/institute/research/sigma-research/sigma-2026-02-world-insurance>

<sup>18</sup> <https://www.researchandmarkets.com/reports/6226162/insurtech-insurance-technology-market-report>

<sup>19</sup> [https://www.oecd.org/en/publications/global-insurance-market-trends-2025\\_0d11ecf4-en/full-report/component](https://www.oecd.org/en/publications/global-insurance-market-trends-2025_0d11ecf4-en/full-report/component)

деятельности расширяют возможности контроля за соблюдением страховыми организациями пруденциальных нормативов. Вместе с тем актуальным является проведение исследований по совершенствованию применения финансовых санкций в качестве действенных мер воздействия за нарушение пруденциальных нормативов, внедрению механизмов финансового оздоровления страховых организаций, а также установлению порядка их ликвидации в случае аннулирования лицензии на осуществление страховой деятельности.

Настоящая диссертационная работа в определённой степени способствует решению обозначенных выше проблем, а также реализации задач, определённых в указах и постановлениях Президента Республики Узбекистан. В частности, результаты диссертационного исследования служат реализации задач, предусмотренных Указом Президента Республики Узбекистан от 30 января 2025 года № УП-16 «О Государственной программе по реализации Стратегии “Узбекистан – 2030” в Год охраны окружающей среды и “зелёной экономики”», постановлениями Президента Республики Узбекистан от 1 марта 2024 года № ПП-108 «О комплексных мерах по дальнейшему развитию рынка страховых услуг» и от 23 мая 2025 года № ПП-191 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы перестрахования в стране», а также иными нормативно-правовыми актами, регулирующими данную сферу деятельности.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

**Степень изученности проблемы.** Общетеоретические положения, касающиеся истории формирования и экономического содержания страховых отношений, а также практические и методические аспекты регулирования и надзора за страховым рынком с учётом их экономической и финансовой природы исследованы в научных трудах зарубежных учёных – A. Aryamov, N. Apergis, I. Boaheng, M. Brandtner, W. Bian, C. Gaganis, Z. Jing, S. Liu, E.J. Richardson, G.E. Rejda, X. Wang<sup>20</sup>, российских учёных и исследователей из

---

<sup>20</sup> Andrei Aryamov and Vladimir Kulakov, ‘Legal Acts of the Galicia-Volhynia Principality of the 12th–13th Centuries as Historical Heritage of Domestic Medieval Law’, *ООО "Zhurnal 'Voprosy Istorii'* 2022, no. 3–2 (1 March 2022): 77–83; Apergis, N. & Poufinas, T. (2020). "The role of insurance growth in economic growth: Fresh evidence from a panel of OECD countries." *The North American Journal of Economics and Finance*, 53.; ISAAC BOAHENG, ‘Exploring the Relationship between the Mosaic Code and the Hammurabi Code’, *All Nations University Journal of Applied Thought*, 30 November 2020, 77–89, <https://doi.org/10.47987/CEFD7600>.; Brandtner, M., & Kürsten, W. Solvency II, regulatory capital, and optimal reinsurance: How good are Conditional Value-at-Risk and spectral risk measures? *Insurance: Mathematics and Economics*. 2014. Vol. 59. pp. 156–167.; Bian, W., Ge, T., Ji, Y., Wang, X. How is Fintech reshaping the traditional financial markets? New evidence from InsurTech and insurance sectors in China. *China Economic Review*. 2023. Vol. 80. pp. 1–20; Gaganis, C., Hasan, I., & Pasiouras, F. Regulations, institutions and income smoothing by managing technical reserves: International evidence from the insurance industry. *Omega*. 2016. Vol. 59(A). pp. 113–129.; Jing, Zhen. *The Regulation of Insurance in China*. London: Routledge (Informa Law), 2014.; M. E. J. Richardson, ‘Hammurabi’s Laws: Text, Translation and Glossary’, *Journal of the American Oriental Society* 122, no. 1 (January 2002): 178, <https://doi.org/10.2307/3087720>; Rejda G.E.

стран СНГ – А.В. Емельянова, Д.И. Кулешовой, А.Н. Магомадова, В.К. Райхера, И.В. Симоновой, В.В. Шахова, А.А. Цвырко, К.Е. Турбиной, Л.К. Улыбиной, К.Г. Воблого, Т.А. Фёдоровой<sup>21</sup> и других.

В трудах узбекских учёных-экономистов С.Т. Абдумуминовой, И.Х.Абдурахмонова, Д.Ф. Абдутураповой, Р.С. Азимова, Н.М. Бабаевой, М.Ш. Эргашевой, Ф. Ш. Хамраевой, С.Р. Матиязовой, Н.А. Мавруловой, М.А. Мирсадикова, Г.А. Носировой, Х.М. Шеннаева, Ш.К. Тухтамишева, М.Я. Тухтаровой, С.А. Умарова, Г.Т. Халикуловой, А.Я. Холбаева, С.М. Хошимова<sup>22</sup> исследованы вопросы осуществления страховой деятельности, управления страховой деятельностью, применения пруденциальных нормативов, а также регулирования, надзора и развития страхового рынка.

**Связь диссертационного исследования с планами научноисследовательских работ высшего образовательного учреждения, где выполнена диссертация.** Диссертационное исследование выполнено в

---

Principles of Risk Management and Insurance. – 10-ed. – Boston: Pearson Education, 2008.; Wang, X., Wu, H., Meng, S., Liu, K., & Chen, H. Deregulation, claims ratio, and consumer surplus: Evidence from China's auto insurance reform. Pacific-Basin Finance Journal. 2025. Vol. 94. pp. 1–20.

